

YOSHLAR NUTQIDA JARGONLARNING QO‘LLANILISHI: TOHIR MALIK ASARLARI ASOSIDA

Mingboyeva Ozoda Mansurovna

Termiz davlat universiteti o‘zbek filologiyasi fakulteti 2-kurs talabasi

Samiyeva Umida Toshboboyevna

Surxondaryo viloyati Sariosiyo tumani 30-sonli maktab o‘qituvchisi

Anottatsiya: ushbu maqolada Tohir Malikning asarlarida slenglarning yoshlar nutqida qanday qo‘llanishi hamda kasbiy va jinoiy jargonlar haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: jargon, sleng, bashka, podles, shirinkoma, marja

Annotation: This article discusses the use of slang in the speech of youth in the works of Tohir Malik, as well as the professional and criminal jargon.

Key words: jargon, slang, bashka, podles, shirinkoma, marja

KIRISH

Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar jargonlarning shakllanishida katta rol o‘ynamoqda. Ko‘pincha ular ingliz tilidan yoki boshqa tillardan kirib keladi. Masalan, like (yoqtirish), okey(yaxshi),respekt(hurmat). Jargonlar yoshlarning o‘ziga xoslik va zamonaviylikni namoyish vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Bu ularning boshqa avlodlardan yoki guruhlardan ajralib turishiga imkon beradi. Tohir Malikning “Alvido bolalik” qissasida ham yoshlarning nutqida ko‘plab jargonlarga duch kelishimiz mumkin. Biroq e‘tiborlisi shundaki, ushbu asarda yoshlar va kattalar nutqi bir-biriga qarishib ketgan, ya‘ni bolalarning ruhiyatidagi, mafkurasidagi o‘zgarishlar ularni jinoyat olami tomon yo‘llagan, shuning uchun ham ularning so‘zlashish jarayonida jinoiy to‘dalarga xos so‘zlarni ko‘ramiz.

Jargonning qo‘llanilishi, turi kabi masalalar sotsialingvistikani o‘rganish 3guruh: argotizmlar, vulgarizmlar, varvarizmlarga bo‘linadi.

Argotizmlar Argo so‘zi fransuzcha “argot” so‘zidan olingan bo‘lib biron ijtimoiy guruhning o‘ziga xos, boshqalar tushunmaydigan yasama tili. Argo bir necha til unsurlaridan iborat qarishiq va ko‘p hollarda, boshqalarga tushunarsiz nutq turida namoyon bo‘ladi.

Varvarizmlar (yunoncha: barbaros — aynan ajnabiy) — ma‘lum bir tilga chet tillardan kirib kelgan, tilda to‘la o‘zlashmay, yotligi bilinib turadigan so‘z va iboralar. Varvarizmlar asosan so‘zlashuv uslubiga xos, tilning adabiy me‘yorini buzadi va uning asosiy lug‘at tarkibiga kirmaydi.



Vulgarizmlar - haqorat ma'nosida qo'llanadigan so'zlar. Bunday leksemalar yoki ularning vulgar ma'nolari adabiy til birligi sanalmaydi, ularni qo'llash nutq madaniyatiga xilof deb qaraladi, ammo badiiy asar tilida bunday so'zlardan uslubiy vosita sifatida foydalaniladi.

-Maza qilib o'ynab kuladigan davringda o'tirish alam qilmaydimi?

O'smir yigitcha tilidan aytilgan ushbu gapda kattalarga xos fikr, mulihaza bor. "O'tirish" so'ziga to'xtaladigan bo'lsak, bu yerda qamoqxonada berilgan jazo muddati nazarda tutilgan. "O'tirib chiqqan" -- qamalib chiqqan.

-Shirinkomadan cho'zish kerak. Jinoyatchilar to'dasiga xos bu so'zda boshqalar tushunmaydigan ma'no mavjud bo'lib, pul degan yashirin ma'no bor.

-Tirik qolganda ham tinchitib ketardim. Tinchitib ketmoq so'zi jinoyatchilar orasida o'ldirib ketmoq so'ziga teng. Bu esa bor yo'g'i 16yoshli bola tomondan aytilgan.

Sen bashkali bolasan. Bashka yoshlar orasida bosh degan ma'noni bildiradi.

Video, kasalxona voqeasidan quruq chiqqishibdi. Quruq bu yerda o'z ma'nosida emas, balki qutulib ketmoq ma'nosida qo'llangan.

-Afsuski, laqmalik uchun qamash mumkin emas. O'shanda sizni laqmaligingiz uchun tiqib qo'yish kerak edi. Ushbu gapdagi "tiqib qo'yish" so'zi qamab qo'yish degan ma'noni anglatadi.

Yana guruh ichida boshliqqa shef, boss, graf deb nom berish ham mavjuddir.

"Padaringga la'nat", "haromxo'r", "haromi" kabilar haqorat ma'nosidagi so'zlardir.

"Juvonmarg bo'lgur" so'kish-qarg'ish so'zlariga mansub bo'lib, juvon ya'ni yosh o'lg'in degan ma'noni beradi.

Har bir jamoaning ichki tartibi, rasm-rusumi bo'lganidek, jinoyat olamining ham o'ziga yarasha qonun-qoidasi bor. Ya'niki, bu olamga qadam qo'ygan har bir tirik jonga laqab beriladi. Bu ham guruhdan begona kishilar uchun ma'lum bo'lib qolmasligi uchun yashirin belgi vazifasini o'taydi.

Jinoyatchilar nutqiga xos so'zlar "yotqizib ketmoq" o'ldirib ketmoq, "o'chirish" jinoyatni yashirish uchun guvohni yo'q qilish, "malina" jinoyatchilar bazasi yoki xavfsiz joy ma'nosida qo'llaniladi. Shuningdek, "pulni qaymoq qilish" noqonuniy daromad qilish, "kazyol" sotqin ma'nosida foydalanish mumkin.

Bugungi zamonaviy asrimizda hamma narsa rivojlanib bormoqda, shuningdek, insonlar nutqida ham bir qancha o'zgarishlar chetdan o'zlashgan so'zlarni ko'plab ko'rishimiz mumkin. Masalan, "gap yo'q", "ok", "takoy", "story", "post qo'yish", "bro", "like", "follow" kabi ko'plab so'zlar ijtimoiy tarmoqlar, internet orqali yoshlar nutqiga kirib kelgan.

Misollar: "gazlama"-havo bermoq, "gazini bermoq"-asabini bermoq, "babnik"-bir nechta qiz bilan munosabatda bo'lgan qiz, "alfons"-qizlar puliga yashaydigan yigit, "tyolka"-qizlarga nisbatan, "xit qilib yubormoq"-bezdirib yubormoq.



Bilmaydiganlar uchun kompyuter jargoni juda o'ziga xos va uni idrok etish qiyin.
Mana bir nechta misollar:

"Vinda" - operatsion tizim derazalar;

"o'tin" - haydovchilar;

"Ish" - ishlash;

"muvaffaqiyatsiz" - ishlashni to'xtatdi;

"servak" - server;

"clave" - klaviatura;

"progs" - kompyuter dasturlari;

"xaker" - dasturlarni buzuvchi;

-Turing, bugun professor Rauf Abdulayevich obxod qiladi!" Obxod" tekshirmoq ma'nosida qo'llangan.

Bo'lmasa kirgizmayman, deydi, kechqurun kelasiz, deydi yashshamagur!

XULOSA, yoshlar nutqida jargon va argolarning qo'llanilishi ularning lisoni qanday darajada ekanligini ko'rsatadi hamda sleng so'zlarning qo'llanilishi insonlar orasidasi maxfiylik va sirlilikni oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Tohir Malik "Alvido bolalik"

2.Tohir Malik "Shaytanat" Toshkent 2018

3.Tursunov S. va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. T. 1992, 118-bet

4.Izoh.uz

5."O'TKIR HOSHIMOV HIKOYALARIDA JARGONLARNING QO'LLANISHI"
Yuldasheva Dilnoza Sirojiddin qizi

6."Jargon, argo va slenglar haqida" Farangiz Botirova, Toirova Guli "Pedagogik islohotlar va ularning yechimlari" jurnali

7.O'zbek tiliga jargon so'zlarning o'zlashuvi, Anvarovna Madinaxon

